

ARAB TILIDA SO'ZLARNI TOBELANTIRIB BOG'LOVCHILARNING (عطف) TASNIFI

Mustafoyeva Nargiza Ikrom qizi

T.D.SH.U.ning lingvistika yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya; Ushbu maqolada حروف العطف va uning ma'nolari tahlil qilinadi hamda ularning o'zaro farqi bayon etiladi.

Arab tili grammatikasi o'ziga xos murakkab qurilishga ega hisoblanadi. Unda so'zlarning erobi masalasi asosiy o'rin egallaydi. So'zlarning erobiga tobelanib keluvchilar alohida bo'lim bo'lib, ular tavobe (ثوابع) deb ataladi. Bog'lovchi (عطف) ham tavobening bir qismi bo'lib, u ham o'z ichida bir necha turga bo'linadi. Bog'lovchi yordamida bog'langan so'z معطف عليه o'zi ergashayotgan so'z esa معطف deyiladi.

Atflar 2 qismga bo'linadi :

- 1) و، ثمّ، ف، حتى، أمّ، أو - عطف مطلقا
- 2) بل، لا، لكن - عطف لفظا

Ushbu maqolada atfning birinchi turi tahlil qilinadi.

Basriyliklarning fikricha و jamlik ma'nosini ifodalaydi. Masalan : جاء زيدٌ و عمرٌ - Zayd va Amr keldi. Ushbu jumlada و bog'lovchisi jamlikni ifodalagan ya'ni Zayd bilan Amr aynan birgalikda bir vaqtda kelganini aytmoqda. Agar ular ikki xil vaqtda kelganda بعد yoki قبل so'zlari orqali aniqlangan bo'lar edi.

Kufiy maktabidagilar esa و bog'lovchisi tartibni ham ifodalaydi deb hisoblashadi.

Shu bilan birgalikda ba'zan و bog'lovchisiz gapning umumiy ma'nosini ifodalab bo'lmaydigan o'rinlar mavjud bo'ladi. Masalan: زيدٌ و أحمدٌ إختصم (Ahmad va Zayd janjallashdi), jumlasida va (و) bog'lovchisini va matufun alayhi (أحمد) ni tushirib qoldirib bo'lmaydi, sababi janjallashish ikki va undan ortiq shaxsning ishtiroki natijasida yuzaga chiqadigan faoliyat jarayon oti hisoblanadi. Yoki bo'lmasa : إصطفَ هذا وإبني: - O'g'lim va bu safga tizilishdi, jumlasida ham safga tizilish ham janjallashish kabi bir necha shaxs tomonidan amalga oshiriladigan harakat hisoblanadi . Shu babli ham ularning foillarini keltirishimiz talab qilinadi va bu bog'lovchilar yordamida yuzaga chiqadi. Shu bilan birgalikda bu holatda faqatgina و bog'lovchisidan foydalana olamiz , uning qisman vazifasini bajarishi mumkin bo'lgan ف bog'lovchishini qo'llay olmaymiz, aks holda ma'noda g'alizlik kelib chiqadi. Ya'ni ف bog'lovchisi ketme-ketlik ma'nosini, turli- tumanlik ma'nosini ifoda eta olganligi sababli ham bu bog'lovchini qo'llay olmaymiz. Ammo ba'zi o'rinlarda va bog'lovchisi ushbu ma'nolarni ham ifoda etayotgan bo'lsa ف bog'lovchisni qo'llay olamiz .

Shu tarkibda و bog'lovchisi xoslik, umumiylik ma'nolarini ham ifodalab keladi.

و bog'lovchisi إِمّا bilan birgalikda ham keladi.Unda u ayiruv bog'lovchisi yordamida uyushib kelayotgan bo'lak yoki gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi. Bunda bo'laklar umumiy moslashuv qoidasiga muvofiq holda bo'ladi.

MASALAN:

إنكارُ المعروف إما جهلٌ وإما عدم تقدير
olmaslikdir.

و bog'lovchisi jamlıktan boshqa ma'nolarni ham ifodalashi mumkin va shunday holatlarda ham u o'z vazifasida qoladi.

- Taqsimlash ma'nosida : الكلمة اسم و فعل و حرف (So'z ism yo fe'l yoki harf bo'ladi);
- Ijzat berish, ruxsat ma'nosida : أي أحدهما : (Hasan yoki Ibn Sirin o'tirsın.);⁶⁴
- Tanlash, ixtiyor etish ma'nolarida : ناثٌ فإختَر لها الصبرَ وَ البكاءَ (Ketdi, u uchun sabr toqatni yoki yig'ini tanla).

Yuqoridagi misollarning tarjimasidan aniq bo'ladiki, bunday hollarda و bog'lovchisi "va" deb tarjima qilinmaydi balki "yoki" deb tarjima qilinadi, ya'ni bu yerda u biriktiruv bog'lovchini emas balki ayiruv bog'lovchining vazifasini bajaradi va ikki so'zning birining ikkinchisiga ergashib uning holatiga to'liq moslashuvini ta'minlaydi.

و bog'lovchisi bilan birgalikda yuqorida zikr etilgan ف bog'lovchisi ham so'zlarni bir-birga bog'lab و bog'lovchisi bajargan vazifani bajaradi , ammo ma'noda u birinchisi ikkinchisidan biroz oldin sodir bo'lganligini, ketma- ketligini ifodalaydi va matufun alayhiga qo'shib yoziladi.

MASALAN :

وصل زيدٌ فعليٌّ - Zayd hamda Ali yetib keldi.

دخل عند السلطان العلماءُ فالأمراءُ - Sulton huzuriga olimlar hamda amirlar kirishdi.

ثمَّ yordamchisi esa matufun alayhi matufdan keyin yuzaga chiqqan ma'noni ifodalaydi, ya'ni ma'tufga nisbatan sekinroq zaifroq amalga oshganini, muddati o'tganligini ifodalaydi.

Masalan:

خرج الشبانُ ثمَّ الشيوخُ - Yoshlar so'ngra qarilar chiqishdi.

انكسر القلمُ ثمَّ الدواةُ - Qalam so'ngra qalamdon sindi.

ثمَّ ف ning farqi shundaki ف bog'lovchisi bog'laganda ish harakat shunchalar ketma – ketlikda sodir bo'ladiki, ular orasida umuman muddat kechmaydi, ثم da esa aksincha ular orasida bir muncha muddat kechgan bo'ladi.

agar ma'tufun alayhi jumla holatida bo'lsa, ف bog'lovchisi asosan sabab ma'nosini ya'ni birinchi ish harakatning yuzaga chiqish sababi natija ma'nosini ifodalayotgan bo'ladi.

حتى esa ma'tufdan ma'tufun alayhi g'oyatda ziyodaligi yoki noqisligi ifodalab keladi.

MASALAN:

مات الناسُ حتى الأنبياءُ - Insonlar hatto Nabiylar ham vafot etadi.

قدم الحجاجُ حتى المشاةُ - Ziyoratchilar hatto piyodalar ham keldi.

Hamda حتى kam holatlarda biriktiruv bog'lovchi bo'lib keladi. Bog'lovchi vazifasida kelishi uchun o'zi bog'lab , ergashtirib kelayotgan so'z aniq ism yiki fe'l bo'lishi, jumla

الزمخشري، المفصل في علم العربية. عمان: دار عمار، ٢٠٠٣، ٢٨٧ص⁶⁴

holida bo'lmisligi, biri ikkinchisining bir qismi bo'lishi ya'ni qism va bo'lak munosabatida bo'lishi kabi shartlar bo'lishi kerak bo'ladi.

Shuningdek, أو va أم bog'lovchilari ham teng bog'lovchilardan bo'lib, yuqoridagi bog'lovchilar bajargan vazifani bajarishadi. Tarjima jarayonida ularning ikkisi ham "yoki" deb tarjima qilinadi. Ularning farqi ular ifodalayotgan ma'noda va qo'llanish o'rinlaridadir.

أو bog'lovchisi ma'tuf va ma'tuf alayhini taqsimlash, ijizat, ixtoyor etish, ikkisidan birini tanlash ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi. أو bog'lovchisi asosan buyruq gaplarda ishlatiladi.

MASALAN:

تزوَّجَ هندًا أو أختَهَا - Hindga yoki uning opasiga uylan.

Yoki fikrni uzatish maqsaida ham ishlatiladi. Masalan:

إِذْهَبْ إِلَى دِمَشْقَ ، أَوْ دَعِ ذَلِكَ ، فَلَا تَذْهَبِ الْيَوْمَ ، أَي: بَلِّ دَعُ ذَلِكَ
bugun ketma .

Ijizat (إِبَاحَة) bilan ixtoyor qilishning (تَخْيِير) o'rtasidagi farq shundayki, ijizatda ikkalasidan bittasini yoki ikkalasini hamtanlash imkoniyatiga ega bo'lsa, tanlash ma'nosidagi gapda esa faqat birini qabul qilish mumkin bo'ladi.⁶⁵

Masalan:

جالسَ العلماءُ أو الزهَّادَ -Ulamolar yoki zohidlar bilan birga o'tirgin.

Bu gapda ikki jamoa bilan o'tirishni birlashtirish joiz bo'ladi.

Lekin تزوَّجَ هندًا أو أختَهَا misolida ikkalasini birlashtirish joiz bo'lmaydi. Bundan kelib chiqadiki, Ijizat ma'nosini ifodalab kelayotgan ma'tuf va ma'tuf alayhini hukmda birlashtirish imkoniyati mavjud bo'ladi.

أما bog'lovchisi esa ko'pincha gaplarni bog'laydi, tenglik ma'nosini yoki ikkalasidan (ma'tuf va ma'tufun alayhi) birini aniqlash ma'nolarida qo'llanadi hamda أ هل، so'roq so'zlari yordamida yasalgan so'roq gaplarda qo'llaniladi.

Masalan:

قال الشاعر: ولستُ أبالي بعدَ فقدي مَالِغًا أَمْ مَوْتِي نَاءٍ أَمْ هُوَ الْآنَ وَاقِعٌ

Shoir aytadiki, akam Malikni yo'qotganimdan keyin o'limimga befarq bo'libman: u uzoqmi yoki hozir ro'y beradimi?

مَهْمُونٌ أَمْ كَانَتْ؟ - أَعْمُكَ مُسَافِرٌ أَمْ أَخُوكَ؟

Yuqorida ikki jumlada أم bog'lovchisi ikki xil ma'noda qo'llangan va ikki xil vazifa bajargan. Birinchi gapda ikki gapni bog'lagan tenglik ma'nosini ifodalagan (Akasi o'limidan so'ng uning vafotining farqi yo'q u keyin sodir bo'ladimi yoki hozir...). Ikkinchi gapda esagapning kesimlarini bog'lamoqda hamda mehmonning ikki shaxsdan aynan qaysi biri ekanligiga oydinlik kiritish maqsadi ma'nosini ifoda qilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bog'lovchi so'zlar borliqdagi narsa va xususiyatlarning o'zini emas, balki ular o'rtasidagi aloqalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bog'lovchi so'zlar o'zi mustaqil ma'no kasb qila olmaydi. Shunga qaramasdan yordamchi so'zlarning gapda

⁶⁵ مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية.-دمشق.2010. \ 681

o'z ahamiyati bor. Yordamchi so'zlar so'zlarni bir-biriga bog'lash, ma'noni ta'kidlash, qo'shimcha ma'no yuklash kabi vazifalarni bajarib, uning bu bajargan vazifasini boshqa so'z turkumlari bajara olmaydi. Bundan tashqari har bir yordamchi so'zning o'ziga xos ma'nosi va ishlatilish o'rnini mavjud, shuning uchun har doyim ham ularni biri o'rnida ikkinchisini qo'llash to'g'ri bo'lmaydi. Shuning uchun ham arab grammatikasida ushbu mavzuga alohida e'tibor qaratiladi. Grammatika kitoblari ichida salmoqli miqdor harf so'z turkumiga bag'ishlanishi bilan birga, juda ko'plab asaralar aynan harf so'z turkumiga bag'ishlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Grande B.M. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – М., 2001.
2. 2003. الزمخشري، المفصل في علم العربية. عمان: دارعمار.
3. 2010. مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية.-دمشق.